
MAHALLA AHLI UCHUN YANA BIR QULAYLIK

Xabar berib o'tganimizdek, tuman hokimining mahallalaridagi yordamchilari bugungi kunda aholining chinakam ko'makchisiga aylanib bormoqda.

Rishton tumani 4-sektorga qarashli "Qayrag'och" va "Sohibkor" MFYlarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirayotgan ko'plab sa'y harakatlari bois, mahalla ahlining hurmatiyu-e'zoziga, duosiga sazovor bo'lmoqda. Kecha tuman hokimi birinchi o'rinbosari Azizjon Mustafaqulov, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari Ravshanjon Saidovlar tomonidan "Qayrag'och" va "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'inlarida olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi.

Ayshtish joizki, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qiskartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari tomonidan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hokim yordamchisining ko'magi bilan "Sohibkor" MFY hududidagi tadbirkor ikki ming tonnalik muzlatkichni qurib bitkazib hozirda ish faoliyatini boshladi. Bu esa ushbu mahalla ahli uchun ko'plab qulayliklarni yaratib berdi.

2022-12-15 08:51:05